

Ko‘kalamzorlashtirish va daraxtlar muhofazasini samarali tashkil etish choralarini belgilandi

So‘nggi yillarda aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish borasida tizimli choralar ko‘rilmoqda.

Jumladan, daraxt va butalar kesilishiga moratoriy joriy qilinib, daraxt kesganlik holatlari uchun jarima va kompensatsiyalar miqdori oshirildi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2021-yilning 30-dekabrida qabul qilingan **“Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yana-da samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-46-son farmoni bilan mamlakat miqyosida daraxtzorlarni ko‘paytirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasining tatbiq etilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichini boshlab berdi.

Xususan, farmonda daraxt, butalar va yashil hududlarni muhofaza qilish hamda ularning maydonlarini kengaytirish, ushbu sohada mas‘ul tashkilotlar faoliyatini yana-da samarali tashkil etishda ayrim toifadagi subyektlarga soliq yengilliklari berish nazarda tutilgan.

Jumladan, mazkur farmonda umumiy maydonning 60 foizida ko‘kalamzorlashtirish obyektlari mavjud bo‘lgan istirohat bog‘lari, parklar va tematik xiyobonlarga hamda ularni ishonchli boshqaruv va ijaraga olgan, investitsion majburiyatlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirib borayotgan va soliq qarzdorligi mavjud bo‘lmagan tadbirkorlarga nisbatan ushbu faoliyat turi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalariga kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash masalasini ko‘rib chiqish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga takliflar kiritish belgilangan.

Shuningdek, istirohat bog‘lari, parklar va tematik xiyobonlarga ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar uchun Soliq kodeksining 414 va 428-moddalariga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar inobatga olingan.